

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA OILA VA TA'LIM MUASASASI INTEGRATSIYASI

Shokirova Madinabonu Shomurod qizi

Zarmed universiteti o'qituvchisi

Shokirovamadina150@gmail.com

+998936877746

Annotatsiya. Ushbu maqolada Boshlang'ich sinflarda zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida oila va maktab integratsiyaning ahamiyati, ayniqsa maktab va ota-ona, o'qituvchi va o'quvchi, o'qituvchi va ota -ona hamkorligining zarurati, unda amalga oshirilayotgan amaldagi islohotlar va keyingi samarali takliflarga misollar keltirilgan.

Tayanch tushunchalar: integratsiya, ta'lim-tarbiya, oila, oilaning jamiyatdagi o'rni, oilaning maktab bilan aloqasi, jamoa, ota-ona, shakl va metod, shaxs tarbiyasi.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение интеграции семьи и школы в современном образовательном и воспитательном процессе в начальных классах. Особое внимание уделяется необходимости сотрудничества между школой и родителями, учителем и учеником, а также учителем и родителями. Приведены примеры проводимых реформ в этой области и эффективные предложения для дальнейшего совершенствования.

Ключевые слова: Интеграция, образование и воспитание, семья, роль семьи в обществе, связь семьи со школой, сообщество, родители, формы и методы, воспитание личности.

Annotation: This article discusses the importance of integration between family and school in the context of modern educational and upbringing processes in primary school. It emphasizes the necessity of cooperation among schools and parents, teachers and students, and teachers and parents. The article also highlights ongoing educational reforms and provides examples of effective practices and recommendations for further improvement.

Keywords: Integration, education and upbringing, family, the role of the family in society, family-school relationship, community, parent, forms and methods, character development.

Bugungi zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida integratsiyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa boshlang'ich sinflarda tarbiya jarayonida oila va maktab o'rtasidagi integratsiya o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish va ular orasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi. Yangi O'zbekistonning ta'lim sohasidagi islohotlari, jumladan, boshlang'ich ta'limni rivojlantirish, o'qituvchilarning ta'limiy va tarbiyaviy malakasini oshirish, oila va ta'lim muasasasi o'rtasidagi munosabatlarni

integratsiyalash, o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash kabi tadbirlar bu jarayonni yanada samarali qilmoqda.

Bundan tashqari, “O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan. Ushbu strategiya, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, oilaviy va milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash kabi muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida, ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash barkamol avlod tarbiyasiga qaratilgan e'tibor yanada kuchaytirilmoqda. Bu esa o'quvchilarning jismonan va ma'nan rivojlanishini ta'minlashda, shuningdek, ularni zamonaviy jamiyatning faol fuqarolari sifatida shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan ushbu o'zgarishlar, mamlakatimizning kelajakdagi taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratishga xizmat qiladi va barkamol avlodni tarbiyalashda yangi imkoniyatlar ochadi. Maqolaning asosiy mavzusi boshlang'ich sinflarda oila va maktab faoliyatini integratsiyalash ya'ni o'quvchi, ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatni to'g'ri yo'lga qo'yishdan iborat.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya-muayyan, aniq maqsadga va har tomonlama ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni tarbiyalash uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan hissiyotlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi. Tarbiya jarayoni-ota-ona, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayoni.

Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo'lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o'sib-unayotgan bolalarimizga bog'liq. Qaysi oilada, qaysi tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila gullab-yashnaydi. Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?, degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Ko'pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug'ullanish lozim, deb javob bergan. Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir

Oiladagi muhit ota-ona o'z ma'suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Bolalarning odobli bo'lib ulg'ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda ta'lim muasasasining ham ahamiyati kattadir. Shuning uchun ham o'zaro integratsiyalash jarayoni juda muhimdir. “Qush uyasida ko'rganini qiladi”, deb bejiz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi,

boshqalar bilan o‘zaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo‘ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o‘z odatlari bilan ba‘zan o‘zlari sezmagan holda ularga ta’sir qiladilar. Oiladagi qo‘pol munosabatlar, ko‘p yolg‘on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta’sir qiladigan nosog‘lom muhitni keltirib chiqaradi.

Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o‘rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo‘pol, dag‘al so‘zlar eshitib, kaltak yeb katta bo‘lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta’sir qiladi. Bu esa o‘z navbatida oiladagi nosog‘lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan “ma’naviy kasal” insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma’naviyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Oilada ota-onalar “ommaviy madaniyat” ta’siriga berilib ketishi oqibatida farzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa bolaning tarbiyasiga, tengdoshlari, ustozlari bilan munosabatida ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Bola tarbiyasida maktabgacha ta’lim, oila va jamiyatning o‘rni beqiyosdir. Tarbiya - ijtimoiy hodisa. U kishilik jamiyati paydo bo‘lgan davrdan beri mavjud. Inson yer yuzidagi eng mukammal zot bo‘lishi uchun, avvalo, tarbiyalanishi zarur. Abu Lays Samarqandiy «Bo‘stonul-orifin» asarida tarbiya va tarbiyalashning ma’nosini ta’riflab: “Ey o‘g‘il, farzandlaringni tarbiyalashdan oldin o‘zingni tarbiyala, tarbiya ko‘rgan oilada baodob, yaxshi fazilatli, bilimli odam voyaga yetadi”, - degan edi. Ibn Sino ijodiyotida ham bu g‘oya alohida o‘rin tutadi. Kimga qanday pand-u nasihat qilsang, unga avvalo o‘zing amal qil”, - deydi alloma. Sharq mutafakkirlari, pedagog olimlari barkamol insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligini, uning mohiyati va mazmunini asoslab berganlar. Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Boshlang‘ich sinflarda tarbiyaning maqsadi - har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish, ma’nan axloqli insonni tarbiyalash.

Oilada va maktabda bola shaxsini tarbiyalash jarayonini integratsiyalash bu-ikki tomon uchun ham muhim hisoblangan tarbiyalanuvchilarning egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka, e’tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

Tarbiyaning umumiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

✓ tarbiyalanuvchilarning maqsadga yo‘naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;

✓ jamiyat rivoji uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy madaniyatga mos "komil inson"ni tarbiyalash;

✓ madaniy va axloqiy tarbiya orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta’minlash;

Tarbiyada integratsiya qonuniyatlari - bu ikki tomonning ya’ni oila va maktabning ijtimoiy ta’lim-tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari va shaxsning

rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror aloqalarni o‘zaro mustahkamlashdir. Bu integratsiyalash jarayonida bolalar o‘z navbatida tarbiyalanib boradi hamda ota-onalar bilan hamkorlikda olib boriladigan ishlarning mazmuni quydagicha bo‘ladi:

✓ bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to‘g‘risidagi qonunlarga asoslanib jarayonni boshqarish;

✓ maktab va oiladagi tarbiya muhitini o‘rganish;

✓ maktablarda ota-onalar jamoatchiligini tashkil etish shular jumlasidandir.

Bu masalalarni jamoa bo‘lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiy majlislari, maslahatlar, konferensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi. Tarbiyachilar bola tarbiyasini shakllantirishda oila tarbiyasiga chambarchas bog‘laydilar. Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to‘rt bo‘limga ajratadi:

1. “Tarbiyaning zamoni”.
2. “Badan tarbiyasi”.
3. “Fikr tarbiyasi”.
4. “Axloq tarbiyasi” haqida hamda uning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritadi.

Shunday ekan bola tarbiyasi bir vaqtning o‘zida “Maktabgacha ta’lim”, “Oila” va “Jamiyat” nuqtai- nazarida shakllanib boradi. Biz oilani “davlat ichra kichik davlat”- deb ataymiz. Unda yangi inson, ya’ni davlatning yangi bir vakili dunyoga keladi. Kichik davlat - oila esa bu inson uchun dastlabki hayot dorilfununi bo‘ladi. Shu sababli ota - onalar farzandning birinchi o‘qituvchisi va tarbiyachisidir. Farzandni barkamol va ma’naviy yetuk qilib o‘stirish uchun, eng avvalo ota- onaning o‘zi yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishi kerak. Farzand tarbiyasini ota- onalar o‘z shaxsiy ishi deb bilmasliklari kerak. Aslida bola tarbiyasi ota-onaning jamiyat oldidagi fuqarolik burchi va davlat oldidagi mas’uliyati hamda qarindosh- urug‘lar oldidagi javobgarligi. Shuning uchun ham ota-ona obro‘si farzand tarbiyasida ma’naviy ozuqa bo‘ladi. Bu ma’naviy ozuqa bola tarbiyasida “ufq” ni ko‘zlab ish tutishda mustahkam poydevor hisoblanadi. Bunday tarbiyalash jarayonida mehnat va ijtimoiy faoliyatni oilaviy vazifalar bilan qo‘shib olib boradigan farzandlari hayotiga qiziqadigan va ularga oqilona, odilona rahbarlik qiladigan ota-onalar ijobiy o‘rnak bo‘ladigan kishilardir, ya’ni obro‘li ota-onalardir.

Bunday odamlar o‘z farzandlari tarbiyasiga oilada ham, maktabgacha ta’limda ham e’tibor beradigan aqlli odamlar, namunali oilalar a’zolari bo‘ladi. Ilmiy manbalarga qaraganda inson shaxsi uchta faktorlar ta’sirida tarkib topadi. Ulardan birinchisi odam tug‘ilib o‘sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta’siri bo‘lsa, ikkinchisi odamga uzoq muddat davomida sistemali beriladigan ijtimoiy ta’lim-tarbiyaning ta’siridir va nihoyat, uchinchisi odamga nasliy yo‘l bilan beradigan irsiy omillarning ta’siridir. Shunday qilib, insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib

topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bu o‘z navbatida bola shaxsini tarbiyalashda oila va jamiyatning ham roli nihoyatda katta ekanligini ko‘rsatib beradi.

Maktabning oila va keng jamoatchilik bilan aloqasi. O‘zbekistonda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar "Oila, mahalla, o‘quv bilim yurti hamkorligi" yo‘nalishidagi shaxs tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, o‘quv bilim yurtining asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi. Ayniqsa, sinf rahbari bilan oila o‘rtasidagi bu xildagi o‘zaro xabarlashuvlar o‘quvchini to‘la o‘rganishga, ta‘lim va tarbiyada shu o‘quvchi uchun eng maqbul tarbiya va ta‘sir vositasini topishga yordam beradi. Sinf rahbari o‘z kuzatishlari, oiladan olgan axborotlari natijasini kundalikka yozib borsa, undagi to‘plangan ma‘lumotlarni vaqti-vaqtida o‘rganish bilan shularga asoslanib tegishli xulosalar chiqarsa, bola xulqini va fazilatlarini yaxshilash yo‘llari, keyingi rejalarni belgilasa, erishilgan darajani hisobga olib yangi pedagogik talablar qo‘yib bo‘lsa, tarbiya albatta samarali natija beradi.

Boshlang‘ich sinflarda oila va maktab o‘rtasidagi munosabat sinf rahbariga bog‘liqdir. Sinf rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari g‘oyat keng, ko‘p qirrali bo‘lib, bu ishlar faqat sinf va maktab miqyosi bilan cheklanmaydi, aksincha turar joylardagi va o‘quvchining ota-onasi ishlab turgan korxonadagi jamoatchilik bilan ham yaqin aloqada bo‘lishni taqozo etadi.

Maktabning oila va keng jamoatchilik bilan aloqasi sinf rahbari orqali amalga oshiriladi. Sinf rahbari ota-onalar bilan olib boradigan ishlariga quyidagi vazifalarni hal qiladi:

1. Ota-onalar bilan yaqindan aloqa o‘rnatadi va aloqani doimo mustahkamlab boradi;
2. O‘quvchiga nisbatan maktabning va oilaning yagona talablar qo‘yishga erishadi;
3. Sinf ota-onalar jamoasini tashkil etib, ularning sinfdagi tarbiyaviy ishlariga faol qatnashishlarini ta‘minlaydi;
4. Ota-onalar o‘rtasida pedagogik bilimlarni tarqatadi va ularning pedagogik madaniyatini yuqori darajaga ko‘taradi;
5. Sinfga otaliq qilayotgan tashkilotlar, oila va maktabga yordam beruvchi tashkilotlar bilan aloqa o‘rnatadi va ularni sinfdagi tarbiyaviy ishlarga jalb qiladi.

Sinf rahbarining o‘quvchini yaxshi tarbiyalashdagi oila va jamoatchilik bilan hamkorligining muvaffaqiyati ularning bola bilan qilayotgan ishlari haqida bir-birlariga qanchalik ko‘p, aniq va muntazam xabar berib turishlariga bog‘liq. Ana shu maqsadda sinf rahbari oilaga bir qator tizimli axborotlar berib turishi kerak:

– o‘quvchining o‘quv mehnatiga tavsifnoma, o‘qishdagi muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligi, ularning sabablari, olayotgan baholari.

– o‘quvchinnig ijtimoiy faolligi haqida axborotlar, o‘quvchining jamoa hayotidagi ishtiroki nimalardan iborat ekanligi, jamoat topshiriqlari va vazifalarning bor-yo‘qligi, sababi, ularga o‘zining munosabati.

– o‘quvchining o‘z o‘rtoqlari, o‘qituvchilari bilan munosabatida vujudga kelgan holatlarning xarakteri, maktabdagi munosabatlarnig doirasi.

– o‘quvchining ayrim hatti-harakatlarini tahlil qilib, ularga pedagogik izohlar berish. Oilaga o‘quvchi tarbiyachi haqida maslahat va tavsiyalar. Oila ham o‘z navbatida farzandi haqida o‘z mulohazalari, kuzatishlari yuzasidan sinf rahbariga quyidagi mazmunda ma’lum axborotlar berib borishi mumkin:

✓ farzandi uyga berilgan vazifalarni qanday bajaradi, unga sarflaydigan vaqti, dars tayyorlash tartibi, mustaqillik darajasi.

✓ belgilangan kun tartibining bola tomonidan bajarilishi.

✓ o‘quvchining maktab haqidagi hikoyalari, taassurotlari, gaplari, sinf hayotidagi turli voqealarga baholari.

✓ ota-onaning ayrim o‘qituvchilardan, sinf rahbaridan, maktab rahbarlaridan iltimoslari va takliflari. Sinf rahbari bilan oila o‘rtasidagi bu xildagi o‘zaro xabarlashuvlar o‘quvchini to‘la o‘rganishga, ta’lim va tarbiyada shu o‘quvchi uchun eng maqbul tarbiya va ta’sir vositasini topishga yordam beradi. Sinf rahbari o‘z kuzatishlari, oiladan olgan axborotlari natijasini kundalikka yozib borsa, undagi to‘plangan ma’lumotlarni vaqtivaqtida o‘rganish bilan shularga asoslanib tegishli xulosalar chiqarsa, bola xulqini va fazilatlarini yaxshilash yo‘llari, keyingi rejalarni belgilasa, erishilgan darajani hisobga olib yangi pedagogik talablar qo‘yib bo‘lsa, tarbiya albatta samarali natija beradi. Sinf rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari tajribasida shaxsiy, sinfsinfli va ommaviy kabi shakllar keng tarqalgan. Ayniqsa, uning ota-onalar bilan olib boradigan ommaviy ishlari bu sohadagi faoliyatinnig asosiy yo‘nalishidir. Chunki bu barcha ota-onalarni birlashtiradi hamda ularni maktab talablari bilan tanishtirish, jamiyatning tarbiyadan kuzatadigan maqsadlari, ota-onaning vazifalari, tarbiyani amalga oshirish yo‘llari, uslub va shakllari haqida bilim berish, sinf hayotidagi o‘zgarishlar, rejalar haqida maslahatlashish uchun pedagogik ma’ruzalar tashkil etish ilmiy anjumanlar, “ochiq eshik” kunlari, savol-javob kechalari, ota-onalar majlislari o‘tkazish ommaviy ishning turlaridir. Sinf rahbarining tajribasida ota-onalar majlislari keng tarqalgan va qaror topgan ish shaklidir. Bu majlislar sinf ota-onalar jamoasining yuqori organi sifatida o‘z qarorlari bilan sinfdagi, oiladagi va turar joylardagi amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning vazifasini va yo‘nalishini belgilab beradi.

Maktabda ota-onalar majlislarining bir necha xili mavjud: sinfdagi tashkiliy ishlar bilan bog‘liq majlislar, ota-onalarga pedagogik ma’lumot berishga bag‘ishlangan majlislar, munozara shaklidagi majlislar, yarim yillik yoki yil yakuniga bag‘ishlangan

majlislar. Bu majlislarning har biri o‘z maqsadiga tayyorlash va o‘tkazish tartibiga ega. Tashkiliy masalalar bilan bog‘liq sinf ota-onalari majlisida odatda ota-onalar sinfi saylanadi, ish rejalari tasdiqlanadi, ota-onalar o‘rtasidagi vazifalar taqsimlanadi.

Ko‘pgina maktabdagi sinf rahbarining ota-onalar bilan olib borayotgan ishlari tajribasida savol-javob kechalari, maslahatlar va munozaralar ham vujudga kelmoqda. Maslahatlar ko‘proq shaxsiy ish shakli bo‘lib, unga sinf rahbari ota yoki onaga farzandini tarbiyalashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish va boshqa masalalar yuzasidan aniq maslahatlar beradi. Sinf rahbari o‘zining shaxsiy suhbatini, oilani o‘rganish va kuzatish asosida to‘plagan ma’lumotlarni ota-onalar bilan o‘tkaziladigan ishlarni hisobga olib boradigan maxsus jurnaliga yozib borishi g‘oyatda muhim. Agar bu xil jurnalni sinf rahbarlari har yili muntazam holda yuritib borsa, u tarbiyaviy ta’siri yaxshilashning muhim vositasiga aylanadi.

Maktablarda integratsion hamkorlikda olib borilayotgan ishlar o‘quvchilar va ota-onalarni qamrab olishi hamda ularning qiziqish va intilishlariga mos bo‘lishi lozim. Hamkorlik tadbirlarining mavzulari “Sog‘lom avlod uchun”, “Ota-onangga rahmat”, “Odobinga balli”, “Sog‘ tanda sog‘lom aql”, “Mehr chashmasi”, “Qizlar ibosi”, “Bir yigitga qirq, hunar oz”, “O‘g‘lim posbonim”, “Oila saboqlari”, “Oila etikasi”, “Oila baxti - Vatan baxti”, “Sportchi oila”, “Oilamiz ohanglari”, “Vatan ostonadan boshlanadi”, “Biz kimmiz” kabi tadbirlardan iborat bo‘lishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, bunday tadbirlar oila va maktab o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni mustahkamlaydi va tarbiya jarayonini amalga oshirishda ko‘prik vazifasini bajaradi. Tarixdan ko‘pgina allomalarimiz tarbiyaga katta ahamiyat berib jamiyatning asosiy vazifalaridan deb bilishgan. “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” A. Avloniyning ushbu so‘zlaridan ham tarbiya naqadar muhim ijtimoiy jarayon ekanligini bilib olishimiz mumkin. Boshlang‘ich sinflarda tarbiyaning asosi oila va maktabda integratsion muhitni yaratish, kelajak avlodni ma’naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalash sanatining qirralari, shakl va yo‘llarini o‘rgatadi hamda uzluksiz va uzviy ta’lim-tarbiya muhitini yaratadi. Bu esa, yosh avlodni har tamonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy, ma’naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, insonning jamiyatda yashashini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva.B.S., Tursunova M.B., Xaydarova M.X., BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYA FANI, dasrlik, Toshkent-2022.

2. Muhammadjonova F.M., SUES OF PRIMARY EDUCATION: PROBLEMS, SOLUTIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS” April 26, 2024 408
BOSHLANG’ICH TA’LIMDA TARBIYA TURLARI VA METODLARI
3. Rahmonova.D.I. SINF RAHBARINING OILA VA JAMOATCHILIGINI BILAN FIAMKORLIGINI TASHKIL ETISH, Образование и наука в XXI веке, 2020.
4. М.Шокирова, “Семейно-школьное сотрудничество в современных условиях начального образования” —Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim oluvchilarni kasbga yo’naltirish: muammolar, yechimlar mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2024-yil 10-dekabr.